
Ma'muriy-hududiy tuzilma

Quva tumani — O'zbekiston Respublikasining Farg'ona viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Janubiy-g'arbdan Farg'ona, shimoliy-g'arb va g'arbdan Toshloq tumanlari, shimol va sharqdan Andijon viloyatining Bo'z, Shahrixon, Asaka, Marhamat tumanlari, janubiy-sharq va janubdan Qirg'izistonning O'sh viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 440 km². Aholisi: 261,000 kishi (2021). Tumanda 65 ta mahalla fuqarolari yig'ini bor. Markazi - Quva shahri.

Aholisi asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, qirg'iz, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km²ga 543 kishi. Quva tumanida O'zbekiston halq yozuvchisi Ibrohim Rahim, O'zbekiston halq artistlari Tavakkal Qodirov, Abdulhoshim Ismoilov va juda ko'plab mashhur shahslar tavallud topishgan.

Iqtisodiyoti Asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. 2500 dan ortiq kichik korxonalar, mikrofirmalar va boshqa korxonalar mavjud. Sanoat korxonalaridan paxta tozalash zavodi, don mahsulotlari kombinati, avtokorxonalar, „Issiqnon“ korxonasi, mebel kombinati, mevani qayta ishlash korxonasi, qandolatchilik fabrikasi, to'qimachilik korxonalarini ishlab turibdi. Savdo, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari aholiga xizmat ko'rsatadi. 3 qo'shma korxonalar bor.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i - paxtachilik, g'allachilik. Shirkat, fermer xo'jaliklari bor. Tuman xo'jaliklari Oxunboboyev nomidagi kanal, Janubiy Farg'ona kanali tarmoqlaridan va Karkidon suv ombori, shuningdek, shimoliy qismi U.Yusupov nomidagi Katta Farg'ona kanalida 29,7 ming qoramol, 34,8 mingdan ziyod qo'y va echki, 48,2 mingdan ortiq parranda, 417 yilqi boqiladi. Pillachilik bilan ham shug'ullaniladi.

2022-04-11 13:58:14